

DAVLAT BYUDJETINI SHAKLLANTIRISHDA EGRI SOLIQLARNING O'RNI

Yusupov Odil Abdiraimovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning o'rniga doir nazariy yondashular ko'rib chiqilgan, soliqqa tortishda to'g'ri va egri soliqlarning nisbatini aniqlash muammosiga e'tibor qaratilgan. Ularning optimal nisbatini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, soliqlar, soliq tizimi, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические подходы к роли налогов в формировании государственного бюджета, было уделено внимание на проблему определения соотношений прямого и косвенного налогообложения. Для определения их оптимального соотношения проводился сравнительный анализ.

Ключевые слова: государственный бюджет, налоги, налоговая система, прямые налоги, косвенные налоги.

Kirish. Davlat byudjeti – mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy sohasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy vositadir. Uning yordamida davlat milliy daromad va boylikni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibini o'zgartirishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar samaradorligiga ta'sir etishi, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda davlat byudjeti – davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi asosiy vositasidir. Davlat o'z funksiyasini bajarishi chog'ida ko'plab harajatlar qilinadi. Ushbu harajatlarni qoplash uchun davlat byudjeti daromad manbalariga ega bo'lib, ularning orasida soliqdan keladigan daromad manbalari salmoqli o'rin egallaydi. Mazkur maqolamizda aynan davlat byudjetini shakllantirishda to'g'ri va egri soliqlarning o'rnini atroflicha yoritib berishga harakat qilamiz.

Davlat byudjetini shakllantirish, aytish mumkin bo'lsa o'ta nozik masaladir. Chunki, davlat byudjetining YAIMdagi optimal ulushini topish lozim bo'ladi. YAIMda davlat byudjetining ulushi oshib ketishi soliq yuklarining ortishiga va bu o'z navbatida iqtisodning aziyat chekishiga olib keladi. Shu jihatdan qaraganda to'g'ri va egri soliqlarning davlat byudjetini shakllantirishdagi o'rnin tadqiq etish va ularning ulushini aniqlash mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda induksion yo'nalish tanlagan bo'lib, ilmiy bilishning dialektik, tahlil, mantiqiylik va tarixiylik kabi usullar orqali

muammoni ochib berishga harakat qilingan. Tadqiqot muammosi korxonalarda mavjud umumiy holatlarni kuzatish orqali qo'yilgan. Tadqiqot uchun zarur axborotlar asosan xorijiy adabiyotlardan olingan.

Tahlil va natijalar. "Harakatlar strategiyasi"da makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish maqsadida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi vazifalar belgilandi. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi soliq tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz. Shu bilan bir qatorda davlat byudjetini shakllantirishda to'g'ri va egri soliqlarning ulushini aniqlash ham mamlakatimiz soliq tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda to'g'ri va egri soliqlarning qiyosiy tahlili keltirildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek to'g'ri va egri soliqlar salmog'ini o'rganish davlatning byudjetini shakllantirishda qaysi (fiskal yoki tartibga soluvchi) metoddan foydalanishini tushunish imkonini beradi. Ularning ulushni to'g'ri aniqlash davlatning soliq siyosatini samarali yo'lga qo'yish imkonini beradi. Iqtisodiy adabiyotlarda soliqlar turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Qator tadqiqotchilar to'g'ri soliqlar to'lovchilarning daromadlari bilan uzviy bog'liq ekanini, egri soliqlar esa iste'mol narxlariga aloqador bo'lib, faqatgina tovarlarning sotilishiga bog'liq ekanini isbotlashgan. Yana bir guruh olimlar soliq to'lovchilarning xususiyatidan kelib chiqib soliqlarni turlashadi: to'g'ri soliqlar ularning mulki yoki daromadidan, egri soliqlar esa ularning faoliyatidan undiriladi. T. Jo'rayev soliqlarni mahsulot narxiga qo'shilishi yoki jalb qilinish xarakteriga ko'ra to'g'ri va egri soliqlarga ajratadi. Soliqlarni to'g'ri yoki egri turlarga ajratishdagi turlicha yondashuvlarga qaramasdan eng so'ngi soliq to'lovchini aniqlash ularning barchasi uchun umumiy me'zon hisoblanadi. Shu o'rinda I.V. Gashenkoning "Har qanday soliq to'lovi soliq undirishning to'g'ri yoki egri mexanizmlaridan biri bo'lib chiqadi" deb ta'kidlagan fikrini o'rinli deb o'ylaymiz. Vaholangki, soliq undirishning qaysi turidan foydalanishdan qat'iy nazar uning iqtisodiy rivojga to'sqinlik qilmasligi asosiy masala bo'lishi lozim. Soliqlarning iqtisodiyotda tutgan o'rnini aniqlash va ularning ulushini belgilash maqsadida quyidagi to'g'ri va egri soliqlarning qiyosiy tavsifini keltiramiz.

Qiyosiy tahlil jadvalidan ko'rinib turibdiki, to'g'ri soliqlarning afzalligi ko'pgina mezonlar bo'yicha egri soliqlarga nisbatan ancha kam. Shuning barobarida egri soliqlarni ham kamchilik jihatlari mavjud. Shunday qilib, egri soliqlarni yuqori fiskal salohiyatga va soliq undirishda umumiylikka ega deb tavsiflash mumkin. Ammo, shuni ham ta'kidlash kerakki, aholini zarur tovarlar bilan ta'minlash maqsadida egri soliqlar haddan ziyod yuqori bo'lmasligi lozim. Egri soliqlar tovar va xizmatlar narxiga ustama sifatida qo'shilishi ularning narxlari o'sishi hamda talabning pasayishiga olib keladi. Ammo, ushbu soliqlarni har doim ham xaridor va sotuvchiga yuklab bo'lmaydi. Soliq yukining taqsimoti talab va taklifning elastikligiga ham bog'liq. Ya'ni tovarga

bo'lgan talab elastikligi qancha past bo'lsa soliq yuki iste'molchiga va aksincha taklif elastikligi qancha past bo'lsa soliq yuki ishlab chiqaruvchiga tushadi. Ishlab chiqarishga egri soliqlarning salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida taklif va talab elastikligi past bo'lgan tovarlarni soliqqa tortishga e'tibor qaratilish lozim. Xo'sh qaysi soliq turi – egri soliqlar adolatlirorqmi yoki to'g'ri soliqlar degan savolga ikkita nuqtayi nazardan kelib chiqib javob berish kerak. Birinchi tomondan egri soliqlarga undirishning adolatli amalga oshirilishi xos. Ikkinchi tomondan esa soliq to'lovchining daromadlariga nisbatan esa egri soliqlar regressiv bo'ladi. Ya'ni soliq to'lovchining individual holati inobatga olinmaydi, shu sababli bu jihatdan to'g'ri soliqlar adolatlirorqdir. Soliqlarning salbiy va afzal tomonlarini tahlil etish amaliyotda qaysi soliqlarni va qanday qo'llash kerakligini ko'rsatadi. Faqatgina egri va to'g'ri soliqlar nisbatini to'g'ri qo'llagan holda davlat soliq tizimining samarali va adolatli faoliyatini yo'lga qo'yish mumkin. Jahon amaliyotida soliq tizimining to'rtta: anglosakson, yevrokontinental, lotinamerikasi va aralash modellari ajratiladi. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimining aralash modeliga o'tishi va unda to'g'ri soliqlarning salmog'i oshishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Buyuk Britaniya, Finlandiya, Kanada, Yaponiya va AQSH kabi rivojlangan davlatlar soliq tizimida to'g'ri soliqlarning roli oshib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Soliqlar davlat byudjetini to'ldiruvchi asosiy manbadir, shu bois, ularni belgilangan muddatlarda undirilishi va byudjetga kelib tushishini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Soliqqa tortishning mohiyati, maqsadi, qoidalari, stavkalari va bazasining holati hamda soliq tizimi shakllanishi har bir davlatning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Chunki, soliq tizimida davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy manfaatlari yotadi. Shu bilan birga, soliqlar iqtisodiyotda nechog'lik muhim bo'lmasin, soliq stavkalarini haddan ziyod oshirib yuborish mamlakatda salbiy iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Davlatning soliq yuklarini eng minimal darajaga tushirgandagina soliqlar, davlat, jamiyat va xalq xo'jaligi o'rtasida ijobiy aloqadorlikka erishish mumkin. Ko'pgina olimlar tadqiqotlarida to'g'ri va egri soliqlarning ijobiy va salbiy jihatlarini keltirib o'tishgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, to'g'ri va egri soliqlarning ijobiy yoki salbiy jihatlarini tasniflash bizningcha anchain munozarali masaladir. To'g'ri soliqlarning afzalligi ko'pgina mezonlar bo'yicha egri soliqlarga nisbatan ancha kamligi qiyosiy tahlilda ko'rindi. Shuning barobarida egri soliqlarni ham kachilik jihatlari mavjud. Egri soliqlar yuqori fiskal salohiyatga va soliq undurishda umumiylikka ega. Ammo, aholini zarur tovarlar bilan ta'minlash maqsadida egri soliqlar haddan ziyod yuqori bo'lmasligi lozim. Egri soliqlar adolatlirorqmi yoki to'g'ri soliqlar degan savolga ikkita nuqtayi nazardan qarash kerak. Birinchi tomondan egri soliqlarga undurishning adolatli amalga oshirilishi xos. Ikkinchi tomondan esa soliq to'lovchining daromadlariga nisbatan esa egri soliqlar regressiv bo'ladi. Ya'ni soliq to'lovchining individual holatini inobatga olinmaydi, shu

sababli bu jihatdan to'g'ri soliqlar adolatliroqdir. Soliqlarning salbiy va afzal tomonlarini tahlil etish amaliyotda qaysi soliqlarni va qanday qo'llash kerakligini ko'rsatadi. Faqatgina egri va to'g'ri soliqlar nisbatini to'g'ri qo'llagan holda davlat soliq tizimining samarali va adolatli faoliyatini yo'lga qo'yish mumkin. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin: soliq tizimini uyg'unlashtirish uchun to'g'ri va egri soliqlar nisbatini belgilashga har tomonlama puxta o'ylab yondoshish lozim; to'g'ri va egri soliqlar nisbatining son ko'rsatkichlari milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib o'zgarishi mumkin, unga milliy xususiyatlar va aholining urf-odatlar ta'sir etadi; O'zbekiston soliq tizimida to'g'ri soliqlarning ulushini oshirishga hali erta bo'lib, chunonchi, to'g'ri soliqlar ishlab chiqarishini: a) qisqartiruvchi omil, b) YAIMning past sur'atlarida ushbu soliqlardan tushadigan daromad yetarli bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jurayev T.I. Soliq siyosatini takomillashtirish. //Toshkent haqiqati, 2003-yil 24-sentyabr, 78-son.
2. Yoziyev G'. O'zbekistonda biznes muhitini yaxshilashning zaruriy choralari: Koreya Respublikasi tajribasi tahlili, O'zbekiston Koreysshunosligi, T., Istiqlol, 2016. 132 b.
3. Kyle Pomerleau, 2016 International Tax Competitiveness Index <https://taxfoundation.org/2016-international-tax-competitiveness-index/>, 4 r.
4. Налоговая политика: теория и практика / под ред. проф. И.А. Майбурева. М.: ЮНИТИ, 2010, с. 316 5. Иловайский С. И. Косвенное налогообложение в теории и практике. – Пенза: РИО ПГСХА, 2010. – с 115.